

Ikki minginchi yillar qo'shig'i

Assalom, muhabbat, ishq to'la ochun,  
Avvalo, tangriga shukrona bo'lsin.  
Muhabbat yulduzi o'chmasin uchun,  
Shoirlar shoirga do'stona bo'lsin.

San'atidan ma'lum xalq tafakkuri,  
Haqiqiy san'atkor millat g'ururi,  
Yo'qolmasin elning sehri, sururi,  
Aktyorlar aktyorga parvona yursin.

Dilning ne dardi bor, qo'shiqlarda bor,  
Jahonda qo'shiqsiz yashamoq dushvor,  
Kuylar tirik ekan yurak ustuvor,  
Hofizlar hofizga mardona tursin.

Oqibat nuridan oftoblanar yuz,  
Sevgiga to'lar dil, mehrlanamiz,  
Biz-ku, mayli, qo'li kalta odammiz,  
Arboblar har bobda xalq yona bo'lsin.

Kitob.uz muhlisi O'zbektosh Qilichbek.